

“O‘zavtosanoat” AJ tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi ““O‘zbekiston–2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-sonli Farmon topshiriqlari ijrosi bo‘yicha
MA’LUMOT

Oktabr holatiga

T/r	Topshiriq mazmuni	Ijroga mas’ul vazirlik, idora	Ijro muddati	Ijro holati
1.	4-ilova, 44-band. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan jamoat transporti ehtiyojlari uchun transport vositalari ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish. Mexanizm: Respublikamizda elektrobus, avtobus va mikroavtobuslar ishlab chiqarish imkoniyatlarini o‘rganib, mahalliy tadbirkorlar va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb qilish hisobiga ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish loyihalarini boshlash.	“O‘zavtosanoat” AJ, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Texnik jihatdan tartibga solish agentligi, Andijon viloyati hokimligi, Toshkent shahar hokimligi	2025-yil yakuniga qadar	Bajarildi. Mazkur topshiriq ijrosi bo‘yicha “SamAuto” MChJ QK ishlab chiqarish quvvatlarida uzunligi 7-9 metr bo‘lgan 3 xil modeldagi (LF60, HD50, HC45) avtobuslar ishlab chiqarilmoqda. Shu bilan birga ayni paytda gaz va elektrda harakatlanadigan (elektrobus) 9 metrli past polli shahar avtobuslarini ishlab chiqarish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. 2024-yilning IV choragida ushbu avtobuslarning 6 ta (3 ta CNG va 3 ta EV) prototiplari ishlab chiqarildi va hozirgi kunda validatsiya sinovlari o‘tkazilmoqda. Sertifikatlashtirish sinovlarining qariyb 80 foizi yakunlandi. Seriyali ishlab chiqarishni o‘zlashtirish uchun texnologik uskunalar joriy yilning may oyida zavodga yetkazib berildi. Hozirgi vaqtga qadar 68 ta payvandlash konduktorlari o‘rnatildi. Shu bilan bir qatorda, iyul-sentyabr oylarida avtobuslarning interer va ekstereri uchun plastik detallarni ishlab chiqarishga mo‘ljallangan texnologik qolip va maxsus jihozlarning 100% yetkazib berildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida tijorat avtomobillari, shu jumladan mikroavtobuslar ishlab chiqarish bo‘yicha 2025-yilda Samist Auto mahalliy korxonasi va Xitoyning Beiqi Foton Motor Co., Ltd kompaniyasi bilan memorandum imzolangan bo‘lib, 2025-yil o‘zida Foton View CS2 mikroavtobuslarini yirik uzelli usulda ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

T/r	Topshiriq mazmuni	Ijroga mas'ul vazirlik, idora	Ijro muddati	Ijro holati
				Joriy yilning 17-oktyabriga qadar 91 ta mikroavtobus shartnoma asosida "SamAuto" MChJ QK zavodida yig'ib berildi.
2.	4-ilova, 61.1-band. Sinov laboratoriyalar bazasini rivojlantirish bo'yicha investitsiyalarni keng jalb qilish. Mexanizm: 1. Quyosh panellar, sovitkich va muzlatkichlar hamda qishloq xo'jaligi texnikalari ag'darish burchagi sinovini amalga oshiruvchi zamonaviy sinov laboratoriyalari mavjud rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish va hamkorlikni yo'lga qo'yish	Texnik jihatdan tartibga solish agentligi, "O'zeltexsanoat" uyushmasi, "O'zavtosanoat" AJ	2025-yil davomida	Bajarildi. Rossiya davlatining "НИИ ИТ и СИ" ilmiy tadqiqot markazining sinov laboratoriyasi va Rossiyaning "NAMI" instituti huzuridagi avtopoligon sinov laboratoriyalari hamda Xitoy davlatining "Chjentyan Shenke Technology Co Ltd" sinov laboratoriyalarida mavjud ag'darish uchun stendlar o'rganildi. Natijada, Xitoylik hamkorlar bilan kelishuvga erishildi. Shuningdek, Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan "SamAuto" MCHJda Yaponiyaning Isuzu kompaniyasi tomonidan o'rnatilgan ag'darish burchagi sinovini amalga oshiruvchi laboratoriya va uskunolari o'rganildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Texnik jihatdan tartibga solish agentligining "UzTest" DUK korxonasi bilan hamkorlikda laboratoriya tashkil etish bo'yicha kelishuv imzolandi.
3.	4-ilova, 61.2-band. Sinov laboratoriyalar bazasini rivojlantirish bo'yicha investitsiyalarni keng jalb qilish. Mexanizm: 2. Mazkur laboratoriyalarni respublikada tashkil etish uchun talab etiladigan uskunalar ro'yxatini shakllantirish	Texnik jihatdan tartibga solish agentligi, "O'zeltexsanoat" uyushmasi,	2025-yil dekabr yakuniga qadar	Bajarildi. "O'zavtosanoat" AJ huzuridagi "TTZ" MCHJ tomonidan qishloq xo'jaligi texnikalarini ag'darish burchagini aniqlash uchun uskunani tayyorlash yuzasidan uskunalar ro'yxati shakllantirildi va xarid qilish ishlari olib borildi. Texnik jihatdan tartibga solish agentligi tasarrufidagi Piskent tumanida joylashgan sinov laboratoriyasi hududiga joylashtirish va sozlash ishlari olib borilmoqda.

T/r	Topshiriq mazmuni	Ijroga mas'ul vazirlik, idora	Ijro muddati	Ijro holati
		“O‘zavtosanoat” AJ		
4.	4-ilova, 61.3-band. Sinov laboratoriyalar bazasini rivojlantirish bo'yicha investitsiyalarni keng jalb qilish. Mexanizm: 3. Quyosh panellar, sovitkich va muzlatkichlar hamda qishloq xo'jaligi texnikalari ag'darish burchagi sinovini amalga oshiruvchi zamonaviy sinov laboratoriyalarini tashkil etish	Texnik jihatdan tartibga solish agentligi, “O‘zeltexsanoat” uyushmasi, “O‘zavtosanoat” AJ	2025-yil dekabr yakuniga qadar	Bajarildi. “O‘zavtosanoat” AJ huzuridagi “TTZ” MChJ tomonidan qishloq xo'jaligi texnikalarini ag'darish burchagini aniqlash uchun uskunani tayyorlash yuzasidan uskunalar ro'yxati shakllantirildi va xarid qilindi. Texnik jihatdan tartibga solish agentligi tasarrufidagi Piskent tumanida joylashgan sinov laboratoriyasi hududiga joylashtirish va sozlash ishlari olib borildi. Bugungi kunda uskunalar to'liq ishga tushirilgan bo'lib, tashkil etilgan laboratoriyada qishloq xo'jaligi texnikalarini ag'darish burchagini aniqlash sinovlari o'tkazilmoqda.